

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo‘limlari va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy boshqarmalari va tizimidagi tashkilotlarda (keyingi o‘rinlarda Tashkilot) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha hisobotlarni (keyingi o‘rinlarda Hisobotlar) shakllantirish va taqdim etish uchun mas’uliyat Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi kurashish Komplaens-nazorat tuzilmasi (keyingi o‘rinlarda – Komplaens-nazorat tuzilmalari) bo‘ladi. Tashkilotning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hisobotni taqdim qilish uchun mas’uliyat hududiy va tarkibiy bo‘linmalardagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat uchun mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul xodim) zimmasida bo‘ladi.

2-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyligi

3. Tashkilotda quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi, shu jumladan, Tashkilotning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini bo‘yicha hisobot har chorakda komplaens-nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Komplaens-nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

5. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilgan yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, tuziladi.

6. Yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o‘rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

7. Har choraklik va har yillik hisobot Tashkilot rahbarlariga topshiriladi. Tashkilotning markaziy apparatidagi Komplaens-nazorat tuzilmasi har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining 25 sanasidan kechiktirmay har choraklik Tashkilotning umumiy hisobotini O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi

kurashish agentligiga (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) ko‘rib chiqishi uchun kiritib boradi.

8. Tashkilotning yillik hisobotidagi umumiyl axborot Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot Tashkilotning Komplaens-nazorat tuzilmalari tomonidan tayyorlanadi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobotni shakllantirish tartibi

9. Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishito‘g‘risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, Tashkilotning korrupsiyaga qarshi Dastur yoki Yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

10. Hisobot har chorakda Komplaens-nazorat tuzilmalari tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay tuziladi va Tashkilot rahbariga ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

11. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2 sanasidan kechiktirmay, Tashkilotning markaziy apparatidagi Komplaens-nazorat tuzilmasi Mas’ul xodimlarga ushbu oyning 10 sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq hisobot taqdim etishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

b) Tashkilotning markaziy apparati bo‘linmalarining hisoboti Tashkilotning markaziy apparatidagi Komplaens-nazorat tuzilmasi tomonidan tuziladi va Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas’ul bo‘lgan rahbar o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi hisobotning biron-bir bo‘limi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko‘rsatish lozim.

v) Hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak;

g) Tashkilotning markaziy apparatidagi Komplaens-nazorat tuzilmasi ushbu Nizomga 2-ilovada ko‘rsatilgan shaklda Tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimning faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiyl hisobotni tuzadi hamda qo‘srimcha ravishda unga ushbu Nizomga 1-ilovadagi shakl bo‘yicha Tashkilot tizimi bo‘yicha tuzilgan hisobotdagi ma’lumotlarni kiritadi. Hisobotda asosiy axborotni o‘zida aks ettirgan qisqacha ma’lumotnomasi va takliflar bo‘lishi kerak. Yillik hisobot o‘z ichiga o‘tgan yilning xuddi shunday ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan solishtirma tahlilni ham qamrab olishi kerak.

12. Tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobotlar va Tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiyl hisobotni tuzishda Komplaens-nazorat tuzilmalari teshishli bo‘linma xodimlaridan zarur hujjatlar,

tushuntirish va statistikani so‘rash va olish huquqiga ega.

13. Komplaens-nazorat tuzilmasi qisqa ma'lumotnomasi biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to‘g‘risidagi umumiyligi hisobotini hisobot davridan keyingi oyning 21 sanasigacha Tashkilot rahbariga taqdim etadi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

16. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda tuziladi.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot Komplaens-nazorat tuzilmasi tomonidan Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to‘g‘risidagi umumiyligi hisobot bilan bir vaqtda tuziladi.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi hisobot rahbar tomonidan ko‘rib chiqilgandan keyin Agentlikka yuboriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

19. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Tashkilotning ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Nizomga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritishga Tashkilotning markaziy apparatdagi Komplaens-nazorat tuzilmasi mas’ul bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi
huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy
bo‘limlari va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi
kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish
va taqdim etish bo‘yicha nizomga

1-ilova

Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot

Tashkilot nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar):	F.I.Sh. lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

T/r	Tadbirlaning nomlari	Tadbirlarning nomlari	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar	Ijro to‘g‘risida belgi	Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdqlish, bajarilmagan bo‘lsa sabablari
1.							
2.							
3.							
4.							

T/r	Tadbir	Erishiladigan natijalar
II. Siyosatlar va protseduralar		
1.	Ichki hujjatlarni moslashtirish	Tashkilotda hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo'lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
III. Shaxsiy namuna		
3.	Tashkilot rahbari va uning o'rinoslarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi).	3-6 bandlarda tashkilot tizimi rahbarlari va ularning o'rinoslarining qonunchilik talablariga rivoja qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish, tarkibiy bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e'tirof etilgan tadbirlarni ko'rsatish lozim.
4.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Tashkilot rahbari va uning o'rinoslarining nomidan).	
5.	Tashkilot rahbari va uning o'rinoslarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	
III. Xavf-xatarlarni baholash		
6.	Tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha har yillik baholash o'tkazish	Ha o'tkazilgan\yo'q o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) \ jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko'rsatiladi)
7.	Hisobot davri uchun Tashkilotda ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o'tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o'zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar. Tashkilotning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
8.	Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar	
9.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi
10.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur.
IV. Korruptsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-tamoyillar		
11.	Tashkilotda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar	Tashkilotda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reestrini ilova qilish zarur.

12.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur. Har yili manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur.
13.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni.	Tashkilotga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va tashkilotdagi lavozimga nomzodlar tekshiruv sonini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
14.	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo‘yicha ijobjiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
15.	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo‘lganda ushbu bo‘limda ko‘rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni ko‘rsatish.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

16.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish: barcha xodimlar uchun; korruptsiyaviy tavakkallchilikka eng ko‘proq moylilik ehtimoli bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun.	Treninglar turi va shakli, o‘qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo‘linmalarni ko‘rsatish.
17.	Tashkilotga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o‘tkazish.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o‘tgan yangi xodimlarni umumiy yang xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko‘rsatish.
18.	Xodimlarning korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo‘linmada amalga oshirilayotgan korruptsiyaga qarshi choraldandan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	Tadbir ishtirokchilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkon bo‘lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlari, viktorinalar, so‘rovnomalar va b. ko‘rsatiladi) va uning yakunlarini ko‘rsatish.
19.	Korruptsiyaga qarshi kurash uchun ma’sullar tomonidan bajarilgan korruptsiyaga qarshi kurash me’yorlari mavzusida axborot- tarqatma materiallari.	Korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to‘g‘risidagi, shu jumladan, ularning to‘g‘ri talqin qilinishi va ularga to‘g‘ri amal qilish to‘g‘risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallar.
20.	Xodimlarning odob- axloq madaniyatini shakllantirish, ularni korruptsiyaga qarshi kurash tizimi va korruptsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallari, skrinsvayerlar, ishchi komp’yuterlar ekraniga qo‘yiladigan suratlar va boshqalar.
21.	Fuqarolik jamiyati va bo‘linma kontragentlari uchun korruptsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korruptsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko‘rsatish (masalan, korruptsiyaga qarshi kurash kuni, korruptsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Sharhnomalariga korruptsiyaga qarshi qo‘gshimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning yangi kotragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.

VI. Korruptsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar. Ta’sir choralar

22.	Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potentsial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
23.	Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni.	Har bir band bo'yicha holatlar sonini ko'rsatish.
24.	Qabul qilingan ta'sir choralar.	Qanday korrektsiyalash choralari, shu jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.
VII. Monitoring va nazorat		
25.	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilganligi	Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mas'ullar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko'rsatish Tekshiruv obyektlari (boshqarma, bo'lim); Tekshiruv mavzusi (masadan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaktsiyalari monitoringi yoki protseduralari va b.); Tekshiruv tadbirlari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
26.	Bo'linmada belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralar?	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjatlar)?

Xulosalar: Hududiy va tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiylaho berish, zaruriyat tug'ilganda avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko'rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va korrektsiyalovchi tadbirlar rejasи: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko'rsatish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo‘limlari va tizimidagi tashkilotlarda korruptsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizomiga

2-ilova

Tashkilotda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 20 ____ yil ____ chi
chorak uchun

UMUMIY HISOBOT

I. Tashkilotning Korruptsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot¹

Tashkilot tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma‘lumot, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo‘linmalar sonini ko‘rsatish zarur;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha-asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi, va hisobot davrida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida tatbiq etilgan korruptsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash²

Tashkilot tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korruptsiyaviy xavf-xatarlar matritsasini yangilagan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatish kerak;

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan hududiy va tarkibiy bo‘linmalarini soni viloyatlar, tashkilotning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi, shuningdek hisobotga ilovada ularning bajarilmaganligi sabablari qisqacha ko‘rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi.

Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo‘yicha nisbati (yuqori, o‘rta, past) hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Tashkilot uchun yuqori bo‘lgan qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko‘rsatilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim (mavjud bo‘lgan taqdirda).

¹Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:— Birlashgan ko‘rinishda markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida hisobot davri uchun ma‘lumotlar. Agar zaruriyat bo‘lsa, alohida bo‘linmalar va ular bo‘yicha ma‘lumotlarni ko‘rsatish;

— Zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik\erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim.

² Bo'lim faqat har yillik hisobot davrida to'ldiriladi. Mazkur bo'limda Tashkilot tizimida korruptsiyaviy xavf-xatarni baholashni o'tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

IV. Amalga oshiriladigan korruptsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida³ (mavjud bo'lgan taqdirda), markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi;

Tashkilotda manfaatlar to'qnashuvini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning umumiylar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etiladi;

Tashkilot bo'yicha rejalshtirilgan manfaatlar to'qnashuvining har yillik deklatsiyalananidagan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan ko'rsatkichlari bajarilmagan hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida tahliliy ma'lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to'qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan);⁴

Hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida Tashkilot tizimida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi va qabul qilingan choralar bo'yicha, shu jumladan, umumiylar soni va toifalar kesimida (masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo'yicha bevosita bo'ysunish natijasida va shu kabilarda) tahliliy ma'lumotlarni keltirish lozim.

Korruptsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot sharnomalariga kiritish Korruptsiyaga qarshi qoidalarni tashkilotning xo'jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo'yicha, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma'lumotlarni keltirish, kontragentlarning korruptsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko'rsatish;

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida tashkilot tizimida kontragent tomonidan korruptsiyaga qarshi qoidalalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni ko'rsatish.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida tashkilot tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar sonini ko'rsatiladi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Tashkilotda korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishning natijalarini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida:

o'qitilgan xodimlarning foizdagagi nisbati, ta'lim shakli (bevosita/onlayn) ko'rsatiladi;

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida Tashkilot tizimi bo'yicha o'qitish darajasi past bo'lgan korruptsiyaga qarshi ko'nikmalarga oid axborot ko'rsatiladi (rejalshtirilgan ko'rsatkichlarga taqqoslangan holda);

Tashkilotda korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kommunikatsiya turlari va sonini hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida (masalan, tarqatmalar, korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha so'rovnomalari o'tkazish) ko'rsatiladi;

Bo'limda shuningdek, tashkilot tizimida o'tkazilgan keng ko'lamli alohida tadbirlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

VI. Korruptsiyaviy xatti-xarakatlар va huquqbuзarliklar to'risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korruptsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korruptsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida ko'rsatiladi;

³Manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish hisobot davrida bajarilgan bo'lsagina axborot to'ldiriladi.

⁴Axborot faqat yillik hisobotda to'ldiriladi

Hisobot davrida xodimlarning korruptsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korruptsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida ko'rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma'lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog'liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

Olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korruptsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat⁵

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida hisobot davrida tashkilot tizimi tomonidan mavjud korruptsiyaga qarshi talablar, ma'lumotlar keltiriladi, shu jumladan, tekshiruvlar o'tkazilgan tashkilotlar soni, shuningdek, tekshiruv o'tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko'rsatiladi;

Hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida tekshiruvlar o'tkazilmagan bo'linmalar soni alohida ko'rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o'tkazilmaganligining asosiy sabablari qischacha qayd etiladi;

O'tkazilgan tekshiruvlar natijalari to'g'risidagi umumiy axborot ko'rsatiladi shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo'lsa, mazkur hisobotning VIII-bo'limga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralar

Tashkilotda korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi to'g'risida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida tahliliy ma'lumotlarni ko'rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiy soni;

qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to'g'risidagi axborot manbalari bo'yicha tuzilmasi ("ishonch telefoni", bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

Tashkilot ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo'yicha (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va b.) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

Tashkilotda qabul qilingan ta'sir choralar to'g'risida tahliliy ma'lumotlarni hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida ko'rsatish, shu jumladan:

o'tkazilgan umumiy tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo'yicha ta'sir choralar ko'riganligi yoki ko'rilmaganligi;

ta'sir choralar turlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida;

tashkilot tizimi jarayon va ichki hujjatlariga o'zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo'lган holda qoidabuzarlikka yo'l qo'ymaslik bo'yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko'rsatiladi.

IX. Xulosalar

Tashkilot tizimida hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida korruptsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko'rsatiladi, korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiyl baho beriladi. Zaruriyatga ko'ra avvalgi davrlardagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o'tkaziladi, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korruptsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

⁵Tashkilotda hisobot davrida Korruptsiyaga qarshi protseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o'tkazilgan tadbirlar yakunlari bo'yicha umumiyl tahliliy axborot aks ettiriladi.

X. Korruptsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida tashkilot tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko'rsatkichlarni markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida yaxshilash imkonini eruvchi asosiy tadbirlar ko'rsatiladi.